Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24335782

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI ANDIJON FAKULTETI

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYALARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



MATERIALLAR TO‘PLAMI

17-18 may, 2024-yil

Published: 17.05.2024

Cite this article: So‘fiyeva Xusniya Soxibjonovna (2024). Aholi daromadlarini oshirish turmush darajasini yaxshilashning muhim omili sifatida (Andijon viloyati misolida). Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24335782

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ахунов М	*Иқтисодиётни математик моделлаштиришнинг рақамли иқтисодиётдаги аҳамияти*	297
Юлдашев Ф	*Пул ислохотларида инфляцион таргетлаш режими*	300
D.X.Iskandarov Abduraximova J Shavkatov J	*Chorvachilik korxonalari faoliyatidagi o'zgarishlarni o'rganishda narxlar indeksi*	303
Abduraxmonov V Abduqayumov J	*Iqtisodiy o‘sishda innovatsion faollikni rivojlantirish yo‘llari*	306
Сотволдиев Э Нажмоддинова М	*Қишлоқ хўжалигида маркетинг коммуникациялари самарадорлигини баҳолаш*	309
Saliev B. K Baxodirov M.N	*Mas’uliyat markazlari bo‘yicha xarajatlarni boshqarishning tahliliy masalalari*	313
Xolmatova N Jumaboyeva M	*Qurilish korxonalari hisobotini mhxs asosida tuzish va taqdim etish*	318
Egamberdieva B	*Unlocking efficiency: key factors influencing the success of small businesses*	321
Юсупов М.Т	*Исследование сушки винограда на компьютерное моделирование*	323
Эрматов И Каримжонова М	*Перераспределение и эффективное использование трудовых ресурсов*	326
Xabibullayev A	*Sanoat korhonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport import strategiyasi*	330
Homidova Sh	*Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligimi oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning zarurligi*	332
Urishev B.A	*Logistika jarayonlarini modellashtirish*	336
So‘fieva X. S.	*Aholi daromadlarini oshirish turmush darajasini yaxshilashning muhim omili sifatida (Andijon viloyati misolida)*	340

Jismoniy modellar odatda to'1iq o'1chov1i va prototipga bo'1inadi. Ko'rinib turibdiki, to'liq o'1chovli modellar haqiqatni etarli darajada aks ettirish uchun boshqalarga qaraganda yaxshiroqdir. Shu bilan birga, dala tadqiqotlarini o'tkazish katta tashkiliy, iqtisodiy va ilmiy qiyinchiliklarga to'1a. Odatda "natura" tashqi va ichki muhit omillarining o'zgarishiga yo'l qo'ymasdan, tizimning mavjud holatini tuzatish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Доенин В.В. Динамическая логистика транспортных процессов. //Компания Спутникт. –Москва, 2010. -248 с.
2. Карриева Я.К. Глобаллашув жараёнида халқаро транспорт логистик тизими фаолиятининг самарадорлиги // ТДАУ. – Тошкент, 2003. – 144 б.

AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

(Andijon viloyati misolida)

So‘fieva Xusniya Soxibjonovna
TDIU Andijon fakulteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. *Aholi turmush darajasini oshirishda ularning daromadlarini shakllantirish jarayonlarini statistik usullarda o‘rganish, ularga ta'sir etuvchi omillarni parametrlari orqali baholash va ularga nisbatan qaror qabul qilish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu jarayonni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish davomida tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy hujjatlarni o‘rganib chiqilgan. Yuqoridagi fikrlarimizni ta'kidlash,xamda jarayondagi muammo, echimlarini maqolamiz orqali bayon qilindi.*

Kalit so‘zlar*: Aholi daromadlari, aholi xarajatlari, aholi turmush darajasi, yalpi milliy mahsulot, ish haqi, nominal ish haqi, real ish haqi, uy xo‘jaligi, kambag‘allik darajasi, tanlanma kuzatish.*

АННОТАЦИЯ. *Изучение статистическими методами процессов формирования доходов населения при повышении уровня жизни, оценка влияющих на них факторов через их параметры и принятие решений в отношении них-одна из актуальных задач современности.В ходе изучения и внедрения этого процесса в практику были изучены исследовательские работы, взгляды отечественных и зарубежных ученых, научные статьи, а также отечественные нормативные акты по данной теме. Подчеркивая вышеуказанные моменты, а также проблемы в процессе, решения были изложены в нашей статье.*

Ключевые слова: *доходы населения, расходы населения, уровень жизни населения, валовой национальный продукт, заработная плата, номинальная*

заработная плата, реальная заработная плата, домашнее хозяйство, уровень бедности, выборочное наблюдение.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida asosiy maqsad fuqarolarining real daromadlari va real oylik maoshlarini tezroq o‘stirishga qaratilganligi hamda kambag‘allik darajasini qisqartirish g‘oyat muhim masalalardan biridir. Aynan aholi daromadlarini taqsimlanishidagi tafovutni kamaytirish ijtimoiy tabaqalanishdagi xavfsizlik me'yorlarini bir maromda ushlab turishga olib keladi.

Aholining turmush darajasini statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy-statistik tahlil qilish, aholi pul daromadlarining hosil bo‘lish manbalari va xarajatlarini maxsus statistik usullarda o‘rganish, pul daromadlari va xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash va xarajatlar tasnifini statistik tahlil etish, iste'mol va iste'mol talablarini qondirilish darajasini statistik ma'lumotlar asosida haqqoniy talqin etish, rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini modellashtirish, statistik prognozlash usullari yordamida ishlab chiqish tadqiqot mavzusini dolzarb mavzulardan biri deb bemalol e'tirof etishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Biz yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Ijtimoiy davlat bu eng avvalo inson salohiyatini ruyobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish demakdir” deb ta'kidlab o‘tgan edi.

Jahonda aholi daromadlari va xarajatlari muammolarini o‘rganish va statistik baholashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bozor mexanizmining samarali faoliyat yuritishi, aholi turmush darajasini oshirish uchun kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek:

“ Har qaysi shaxs, inson, har bir oilaning tinch va farovon hayot haqidagi ezgu niyat va xohish-istaklarini ro‘yobga chiqarish, aholi turmush darajasining barqaror o‘sib borishini ta'minlash e'tiborimiz markazida bo‘ladi”.

Ijtimoiy sohaning muhim yo'nalishi aholining daromadlar darajasi bo'yicha taqsimlanishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda aholining qashshoqlik darajasining o'ziga xos xususiyati alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan sharoitda bozor rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida aholining to‘lov qobiliyatini tahlil qilish zarurati paydo bo‘ldi. Zamonaviy sharoitda turmush darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, uning iqtisodiy tarkibiy qismi aholining turli guruhlari daromadlarining, shu jumladan pullarning o'sishi, shuningdek, ushbu guruhlar olingan pul mablag'larini sarflash yo'nalishidir. Aholining daromadlari va xarajatlarini o'rganishda statistikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) daromadlar va xarajatlarning hajmini, tarkibini (tuzilmasini), dinamikasini aniqlash;

2) aholining daromadlari bo'yicha tabaqalanish xususiyatlari;

3) daromadlar va xarajatlarning iste'mol va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'rganish;

4) aholining daromadlar bo‘yicha taqsimlanishini tahlil qilish va modellashtirish;

5) aholining qashshoqlik darajasining xususiyatlari;

6) aholi daromadlari va xarajatlarining hududiy darajalarini, ularning tarkibidagi

Aholi daromadlarining asosiy turi - bu aholining pul daromadlari ham xuddi shunday tarzda o'rganiladi; Ushbu yo'nalishdagi asosiy ma'lumot manbalari:

1) aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi;

2) uy xo'jaliklari byudjetlarining namunaviy tadqiqoti. Aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi aholining pul daromadlari, xarajatlari va jamg'armalarining hajmi va tarkibini tavsiflaydi. Balans ma'lumotlari yalpi milliy daromadning aholiga pul daromadlari shaklida keladigan qismini aks ettiradi.

Ma'lumki, aholi daromadlari farqlanishiga ularning manba va shakllari turli-tumanligi asos sanaladi. Bu farq jon boshiga va daromadlar darajasiga qaraganda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lib, ular turli ijtimoiy guruhlar vakillari va turli hududlarda istiqomat qiluvchilar daromadlarining miqdoran tabaqalanishini anglatadi. Aholi daromadlarining farqlanishi, xususan, daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik bozor tizimiga xos hodisa. Buni teng imkoniyatlar sharoitida daromad topish qobiliyatining turlichaligi yuzaga keltiradi.

Har bir viloyat kabi Andijon viloyatining ham daromad va xarajatlar dinamikasida o‘ziga xos xususiyatlari bor. Statistik tahlilni o‘tkazish uchun ma'lum vaqt davomida daromadlar va xarajatlar to‘g‘risidagi ma'lumotlardan foydalandik.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar dinamikasi, ming so‘mda

(2022 yil dastlabki ma'lumotlar) 1-jadval.

Yillar	O‘zbekiston Respublikasi	Andijon viloyati	Mutloq farq	Nisbiy
2013	4175,1	3754,5	-420,6	-10,07
2014	4759,6	4267,6	-492	-10,34
2015	5410,6	4835	-575,6	-10,64
2016	5410,6	5637,3	226,7	4,19
2017	5410,6	6777,7	1367,1	25,27
2018	7314,1	8412	1097,9	15,01
2019	9128,6	9941,5	812,9	8,90
2020	12122,2	10765,9	-1356,3	-11,19
2021	14869,8	12946,1	-1923,7	-12,94
2022	17807,3	15727,3	-2080	-11,68

Tahlil natijalariga ko‘ra 2022 yilda Respublikada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichi 17807,3 ming so‘mni Andijon viloyati kesimida 15727,3ming so‘mni tashkil etgan bo‘lib, Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan 2080ming so‘mga yoki 11,68% ga kamdir.

Hududlardagi aholi daromadlaridagi farqlanishlar shahar va qishloq aholisi etnik guruhlari tarkibiga ham bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy tengsizlik kelib chiqishining muhim sabablaridan hisoblanadi. Hozirgi davrda ham shahar xonadonlarining daromadlari qishloq xonadonlarining daromadlaridan ancha yuqori. Bunga asosan iqtisodiyotning industrial va agrar sohalari o‘rtasidagi tafovut sababdir.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Aholi daromadlari va ularning tabaqalashuvi o‘zaro chambarchas bog‘langan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sanaladi. Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda aholi turmush darajasini to‘laroq tahlil qilishga imkon beruvchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi.

Ish haqi tabaqalanishining aholi daromadlari umumiy tengsizligiga ta'sirini o‘rganishda korrelyasion-regression tahlil usulini qo‘llash maqsadga muvofiq. Shu munosabat bilan davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanalgan aholi daromadlari tengsizligini qisqartirish maqsadida real ish haqidagi tabaqalanish darajasini pasaytirish taklif etildi. Bunga, birinchi navbatda, past ish haqi berilayotgan tarmoqlardagi (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari) ish haqini o‘rtacha darajaga yaqinlashtirish yo‘li bilan erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sufiyeva K.S. Tasks of statistics in the study of living standarts.Konferensiya materiallari, pr.Sh.Sh. Sharofov tavalludining 85 yilligigi bag‘ishlangan anjumani.
2. Кремлев Н.Д. Проблемы оценки уровня жизни населения / Н.Д. Кремлев // Вопросы статистики. – 2000. – № 8. – С. 18-23.
3. Курс социально-экономической статистики. Учебник /Под ред. проф. М.Г.Назарова. – М.: Информ Финстат., ЮНИТИ-ДАНА, 2000, С.576.
4. Социальная статистика. Учебник. /Под ред. проф. И.И.Елисеевой. – М.:”Финансы и статистика»,2002, с.65.
5. https://www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2018/02/weodata/weoselco.aspx?g=2001&sg=All+countries#c111